



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedراسi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864




MUNDARIJA

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmuratovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





INNOVATSION FAOLIYAT BILAN BOG‘LIQ MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISH

Baratova Zumrat Xalmetjanovna

*Mustaqil izlanuvchi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: zumrad2390@gmail.com
ORCID:0009-0002-1737-7165*

Annotatsiya. Maqolada innovatsion faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy risklarni boshqarishning nazariy-uslubiy asoslari, ularni prognoz qilishning zamonaviy usullari hamda xalqaro amaliyot tajribalari tadqiq etilgan. Innovatsion loyihalarda uchraydigan moliyalashtirish, likvidlik, rentabellik va investitsion risklar tahlil qilinib, “Qo‘qon mexanika zavodi” AJ misolida moliyaviy risklarning ekonometrik prognozi amalga oshirilgan. Tadqiqot natijasida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish va moliyaviy risklarni kamaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion faoliyat, moliyaviy risklar, risk-menejment, ssenariy tahlili, Monte-Karlo simulyatsiyasi, rentabellik, investitsion risk, venchur moliyalashtirish, innovatsion loyiha, prognozlash.

УПРАВЛЕНИЕ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ, СВЯЗАННЫМИ С ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ

Баратова Зумрат Халметжановна

*Научный соискатель
Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail: zumrad2390@gmail.com
ORCID:0009-0002-1737-7165*

Аннотация. В статье исследованы теоретико-методологические основы управления финансовыми рисками, связанными с инновационной деятельностью, современные методы их прогнозирования и международный опыт. Проанализированы риски финансирования, ликвидности, рентабельности и инвестиционной деятельности инновационных проектов, а также выполнен эконометрический прогноз финансовых рисков на примере АО «Кокандский механический завод». Разработаны научно-практические рекомендации по повышению эффективности инновационной деятельности и снижению финансовых рисков.

Ключевые слова: инновационная деятельность, финансовые риски, риск-менеджмент, сценарий анализ, Монте-Карло моделирование, рентабельность, инвестиционный риск, венчурное финансирование, инновационный проект, прогнозирование.

IMPROVING THE MANAGEMENT OF FINANCIAL RISKS ASSOCIATED WITH INNOVATIVE ACTIVITIES

Baratova Zumrat Khalmetzhanovna

*Postgraduate researcher
Tashkent State University of Economics
Email: zumrad2390@gmail.com
ORCID: 0009-0002-1737-7165*





Abstract. *This article examines the theoretical and methodological foundations of managing financial risks associated with innovative activities, modern forecasting techniques, and international best practices. Financing, liquidity, profitability, and investment risks related to innovation projects are analyzed, and an econometric forecast of financial risks is conducted using the case of “Kokand mechanical plant” JSC. Based on the findings, scientific and practical recommendations aimed at improving innovation performance and mitigating financial risks are proposed.*

Keywords: *innovative activity, financial risks, risk management, scenario analysis, Monte Carlo simulation, profitability, investment risk, venture financing, innovation project, forecasting.*

Kirish

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning joriy tendensiyalarida innovatsiyalar har tomonlama dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. So‘nggi yillarda innovatsion faoliyatning institutsional-tashkiliy asoslarini rivojlantirish, ilmiy ishlanmalarni iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy etish, innovatsion infratuzilmani shakllantirish hamda innovatsion loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash borasida samarali ishlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni[1] qabul qilinishi, innovatsion rivojlanish strategiyalarining ishlab chiqilishi, texnoparklar, innovatsion markazlar va startap ekotizimini rivojlantirishga qaratilgan institutsional mexanizmning joriy etilishi innovatsion iqtisodiyotning huquqiy va tashkiliy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida[2] iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta‘minlash, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirish hamda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “Startap loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-357-son qarori [3] innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmini rivojlantirish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning yangi bosqichini boshlab berdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, innovatsion faoliyat iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biri bo‘lishi bilan bir qatorda yuqori tavakkalchilik darajasi bilan ham tavsiflanadi. Innovatsion loyihalarning muvaffaqiyati texnologik yangiliklarning amaliy natija berishi, bozor tomonidan qabul qilinishi, moliyalashtirish manbalarining barqarorligi va investitsion qarorlarning samaradorligiga bog‘liq. Mazkur omillar esa innovatsion faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy risklarni boshqarish masalasini innovatsion iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylantirmoqda. Ayniqsa, sun‘iy intellekt, Big Data, FinTech, biotexnologiya, “yashil” texnologiyalar va raqamli platformalar asosidagi innovatsion loyihalarning rivojlanishi moliyaviy risklarning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Tadqiqotlardan ma‘lumki, innovatsion loyihalarda investitsiya resurslarining cheklanganligi, texnologik yangilanishlar, bozor talabining shakllanmasligi, likvidlik muammolari hamda valyuta va foiz stavkalari o‘zgarishi bilan bog‘liq moliyaviy risklar investor va tadbirkorlar uchun ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun, innovatsion faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy risklarni aniqlash, baholash va boshqarishning zamonaviy uslublarini ishlab chiqish, xalqaro amaliyotda qo‘llanilayotgan risk-menejment vositalarini o‘rganish hamda ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi

Xalqaro va mahalliy ilmiy nashrlarda olimlar tomonidan innovatsion faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy risklarni boshqarishga doir ko‘plab ilmiy maqolalar va tadqiqotlar e‘lon qilinmoqda. Ayniqsa, innovatsion iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, Big Data, FinTech va startap ekotizimlarining kengayishi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish





bilan bog‘liq risklarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Metrick A. va Yasuda A. tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda venchur kapitalning o‘rni hamda moliyaviy risklarni boshqarish mexanizmi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, innovatsion faoliyatdagi asosiy tavakkalchiliklar texnologik muvaffaqiyatsizlik, bozor noaniqligi va moliyalashtirish manbalarining yetishmasligi bilan bog‘liq bo‘lib, ularni kamaytirishda investitsion portfelni diversifikatsiyalash va bosqichma-bosqich moliyalashtirishdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Mualliflar innovatsion loyihalarda risk va daromadlilik o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash venchur investitsiyalar samaradorligining asosiy omillaridan biri ekanligini ta‘kidlagan [4]. Kerr W.R., Nanda R. va Rhodes-Kropf M. innovatsion kompaniyalarni moliyalashtirishda investitsion risklarning iqtisodiy mohiyati va ularni boshqarish usullari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, innovatsion faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy risklarni samarali boshqarish startaplarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta‘minlash imkonini beradi. Mualliflar innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda davlat qo‘llab-quvvatlashi va xususiy investitsiyalar o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash zarurligini asoslab bergan [5]. Damodaran A. ilmiy tadqiqotlarida innovatsion loyihalarni baholashda riskka moslashtirilgan diskont stavkalar, real opsiya model va ssenariy tahlil usullarining ahamiyati yoritilgan. Muallifning fikricha, innovatsion faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy risklarni boshqarishda an‘anaviy investitsion baholash usullaridan tashqari noaniqlik omillarini hisobga oluvchi zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish zarur [6]. Block J.H., Colombo M.G., Cumming D. va Vismara S. tomonidan venchur kapital va innovatsion moliyalashtirish mexanizmining risklarni kamaytirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash innovatsion loyihalarning muvaffaqiyat ehtimolini oshiradi va investitsion risklarni kamaytiradi. Mualliflar innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda raqamli platformalardan foydalanish samaradorligini alohida ta‘kidlagan [7].

S.Kalendjyanning ta‘kidlanishicha, korxonalarining innovatsion faoliyati yuqori darajadagi moliyaviy noaniqlik va investitsion risklar bilan tavsiflanadi. Olimning fikriga ko‘ra, innovatsion loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun moliyaviy risklarni samarali boshqarish strategik moliyaviy rejalashtirish, raqamli monitoring texnologiyalari hamda zamonaviy risk-menejment mexanizmlarining o‘zaro integratsiyasiga asoslanishi lozim [8]. Y.Fedorova moliyaviy risklar investitsion muhitning yuqori darajadagi o‘zgaruvchanligi, kelgusidagi pul oqimlarining noaniqligi hamda innovatsion loyihalar natijalarini prognoz qilishning murakkabligi bilan chambarchas bog‘liqligini asoslab beradi. Olimaning ta‘kidlashicha, xalqaro amaliyotda innovatsion risklarni boshqarish ekonometrik modellashtirish, stress-test usullari va moliyaviy ma‘lumotlarni raqamli tahlil qilish vositalaridan keng foydalanishga asoslanadi [9]. A.Abramov innovatsion iqtisodiyot sharoitida moliyaviy risklarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning yangi modellarini shakllantirish zarurligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, xalqaro tajribada venchur moliyalashtirish, innovatsion investitsiya fondlari hamda kapital bozori instrumentlaridan samarali foydalanish innovatsion faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy risklarni kamaytirishning muhim vositasi hisoblanadi [10].

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar innovatsion faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy risklarni boshqarishda strategik moliyaviy rejalashtirish, raqamli texnologiyalar, ekonometrik modellashtirish, venchur moliyalashtirish hamda ESG tamoyillaridan kompleks foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa innovatsion loyihalarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, investitsion risklarni minimallashtirish va korxonalar innovatsion rivojlanishining uzoq muddatli samaradorligini oshirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Innovatsion faoliyatning o‘ziga xos jihati shundaki, u yuqori darajadagi noaniqlik, texnologik muvaffaqiyatsizlik ehtimoli, bozor talabining o‘zgaruvchanligi va investitsiya resurslarining uzoq muddatga bog‘lanishi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun innovatsion faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy risklarni baholash va boshqarish masalasi zamonaviy moliyaviy menejment, investitsion strategiya va risk-menejment tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.





Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda innovatsion faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy risklarni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishda tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, ekonometrik modellashtirish, ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, analiz va sintez usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida innovatsion loyihalar bilan bog‘liq moliyaviy risklarni baholashda xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan Scenario Analysis (ssenariy tahlili), Monte-Carlo Simulation, Value at Risk (VaR) usullarining ilmiy asoslari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

Moliyaviy risklarni prognoz qilish usullari turli ilmiy maktablar va amaliy yondashuvlar negizida shakllanib kelmoqda. Xalqaro ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish asosida, risklarni prognoz qilish usullariga doir uch asosiy yondashuvni ajratish mumkin deb hisoblaymiz, bular: statistik va ekonometrik modellar, sun‘iy intellekt va mashinaviy o‘rganish usullari hamda stsenariy tahlili (stress-testlar). Bugungi kunda moliyaviy prognozlash amaliyotida chiziqli va chiziqli bo‘lmagan bog‘liqliklarni hisobga olish maqsadida ushbu usullar ko‘pincha birgalikda yoki gibril ko‘rinishda foydalanilmoqda. Bizningcha, xalqaro amaliyotda moliyaviy risklarni prognoz qilishda keng foydalanilayotgan usullar sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatib ko‘rsatish mumkin deb hisoblaymiz (1-jadval).

Xalqaro amaliyotda kompaniyalar tomonidan istiqbolli rivojlanish va unga ta‘sir etuvchi risklarni baholashda ssenariy tahlil (Scenario Analysis) metodidan keng foydalaniladi. Ssenariy tahlili bu turli xil ehtimoliy kelajak ssenariylarini shakllantirib, ular amalga oshganda investitsiya portfeli yoki kompaniya faoliyati qanday natijalarga ega bo‘lishini baholash usulidir. Boshqacha aytganda, ssenariy tahlili “nima bo‘ladi agar...?” degan savolga javob izlaydigan tahlil instrumenti hisoblanadi. Ssenariy tahlil tom ma‘noda ta‘sirchanlik tahlili (sensitivity analysis) bilan uzqiy bog‘liq deb hisoblaymiz, chunki ta‘sirchanlik tahlilida faqat bitta o‘zgaruvchi o‘zgaranda natija qay holatga o‘zgarishini kuzatadigan bo‘lsak, ssenariy tahlilda bir vaqtning o‘zida bir necha muhim o‘zgaruvchilarning turli birikmalarda o‘zgarishi kuzatiladi.

1-jadval

Risklarni prognoz qilish usullari va ularning tasnifiy jihatlari

Usul nomi	Tavsifi	Afzalliklari	Kamchiliklari
Scenario Analysis (Ssenariy tahlili)	Turli bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqealar ssenariylarini tahlil qilish	Keng qamrovli tahlil, turli ssenariylar	Ssenariylarni tanlash subyektiv bo‘lishi mumkin
Monte-Carlo Simulation	Ehtimollik asosidagi modellashtirish	Ehtimoliy natijalarni keng doirada hisobga oladi	Murakkab, ko‘p ma‘lumot talab qiladi
Sensitivity Analysis (Sezuvchanlik tahlili)	Xususiy omillar o‘zgarishini tahlil qilish	Oddiy va tez amalga oshiriladi	Cheklangan natija beradi, o‘zaro ta‘sir hisobga olinmaydi
VaR (Value at Risk)	Maksimal kutilayotgan yo‘qotishni baholash	Moliyaviy institutlar orasida keng qo‘llaniladi	Ekstremal holatlar e‘tiborga olinmasligi mumkin
Stress Testing (Stress-testi)	Ekstremal sharoitlarda faoliyatni baholash	Inqiroz holatiga tayyorlanishda foydali	Scenariylar tanlash murakkab

*Muallif tomonidan tuzilgan

Odatda ssenariy tahlilda bir necha muqobil ssenariylar tuzilib bular, bazaviy (ko‘proq kutiluvchi), eng yaxshi holat (best-case) va eng yomon holat (worst-case) ssenariylari hisoblanadi. Umuman olganda moliyaviy menejerlar va investorlar turli holatlardagi ehtimoliy zarar yoki foyda hajmini aniqlashlari hamda strategik rejalarini shu bazaviy prognozlar asosida muvofiqlashtirishlari mumkin. Ssenariy tahlilining asosiy nazariy yutuqlaridan biri shuki,





kelajakni to‘liq va aniq prognoz qilish qiyin bo‘lsada, lekin olingan natijalar istiqboldagi ro‘y berishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarga oldindan tayyorgarlik ko‘rish imkonini beradi. Fikrimizcha, bu kabi imkoniyatlarning keng jabhasini hisobga olgan holda strategik rejalar tuzilsa, kompaniya yoki investitsiya portfeli har qanday holatga tayyor turadi. Ssenariy tahlili investitsiya qarorlarini qabul qilish va risk-menejmentni samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, avvalo, u barcha ehtimoliy natijalarni tizimli o‘rganishga imkon beradi ya’ni “eng yomon holatda” nimalar sodir bo‘lishi mumkinligini pronoz qilish imkonini beradi.

Bu esa moliyaviy menejerlarga qaror qabul qilishda asosiy axborot manbai bo‘lish bilan birga, har bir qarorning nafaqat kutilgan natijasini, balki yomon tus olgandagi holatini ham namoyon etadi. Ikkinchidan, ssenariy tahlil strategik rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega, chunki u boshqaruv organlari va moliyaviy menejerlarga turli sharoit va vaziyatlarda qaysi strategiya optimal samara berishini tekshirib ko‘rish imkonini beradi. Uchinchidan, ssenariy tahlil usuli barqaror risk-menejment mexanizmi va oldindan turli vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rishni ta’minlaydi. Xuddi favqulodda vaziyatlar ssenariylari orqali favqulodda holatlarga tayyorgarlik ko‘rilgani kabi, moliyaviy ssenariy tahlili orqali moliyaviy turg‘unliklarga tayyorgarlik ko‘rish mumkin bo‘ladi, bu esa kompaniyani “shok” holatlaridan himoyalash imkonini beradi.

Xalqaro amaliyot borasida fikrlarimizni davom ettirar ekanmiz, ROE dan foydalanishda kompaniya kapitalining o‘rtacha tortilgan qiymati ya’ni WACC (Weighted Average Cost of Capital) bilan solishtiriladigan muhim jihati mavjud. Bunda kompaniyalar tomonidan valyuta va inflyatsiya bilan bog‘liq moliyaviy risklarni baholashda ushbu ko‘rsatkichlar bazaviy ko‘rsatkichlar sifatida foydalaniladi. Ushbu tajribadan kelib chiqqan holda milliy amaliyotda aksiyadorlik jamiyatlarida kapital bilan bog‘liq moliyaviy risklarni prognoz qilish amaliyotini takomillashtirishda kapitalning o‘rtacha hisoblangan qiymatidan diskont stavka sifatida foydalanilganda valyuta va inflyatsiya bilan bog‘liq moliyaviy risklarni inobatga olish tartibini joriy etish zarur, deb hisoblaymiz.

1-jadval

“Qo‘qon mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyatining samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
1.	Xususiy kapital rentabelligi (ROE)	-24,30	0,90	1,46	0,97	1,24	1,40
2.	Aktivlar rentabelligi (ROA)	-8,49	0,33	0,53	0,34	0,44	0,99
3.	O‘z mablag‘larini qarz mablag‘lariga nisbati (E/D)	0,54	0,58	0,57	0,54	0,55	0,55
4.	Moliyaviy leveraj koeffitsienti (D/E)	1,86	1,74	1,77	1,86	1,81	1,45
5.	Qarz nisbati koeffitsienti (Debt ratio)	65,08	63,49	63,90	64,99	64,38	61,20
6.	To‘lov qobiliyati (qoplash) koeffitsiyenti (Solvency ratio)	1,32	1,35	1,32	1,26	1,3	1,27
7.	Absolyut likvidlik koeffitsienti (Liquidity Ratios)	0	0,38	0,034	0,15	0,25	0,17
8.	Asosiy vositalarni yangilash koeffitsienti (CAPEX)	0,69	0,54	0,71	0,59	0,64	0,71

*Muallif tomonidan tuzilgan

Mazkur ilmiy maqolani bajarish jarayonida “Qo‘qon mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyatining innovatsion faoliyatini moliyalashtirishda kapitaldan foydalanish va moliyaviy





barqarorlik ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq risklarni prognoz qilish masalasiga e‘tiborimizni qaratimiz. 1-jadval ma‘lumotlari va jamiyatning yillik moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlariga asoslanib, bir va ko‘p o‘zgaruvchili vaqtli qatorlar bo‘yicha moliyaviy risk ko‘rsatkichlarini prognozini amalga oshiramiz. Foster-Styuart usulidan foydalanib esa, y_1 - y_2 ko‘rsatkichlarining vaqt qatorlari statsionar emasligi, y_3 - y_5 vaqtlar qatorida esa tendentsiya yo‘qligi aniqlandi. Statsionar bo‘lmagan vaqt qatorlarini modellashtirish va prognoz qilish uchun biz analitik tekislash va adaptiv polinom modellardan foydalandik. Statsionar bo‘lganlar uchun esa - eksponent tekislash va avtoregression modellardan foydalanamiz. Trend tenglamalari va ularning sifatini baholash 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval
“Qo‘qon mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyatining 2013-2024 yillar uchun rentabellik ko‘rsatkichlarini analitik tekislash natijalari*

Trend tenglamasi	Approksimatsiya hatoligi, %	O‘zgaruvchanlik koeffitsienti, %
$y_1 = -0,14t^2 + 2,88t + 12,82$	3,90	4,87
$y_1 = -0,01t^3 + 0,13t^2 - 0,07t + 2,14$	11,80	14,98

*Muallif tomonidan tuzilgan

O‘zgaruvchanlik koeffitsientlari tadbirkorlik riskini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tendentsiyasini o‘rganishga muhim omillardan biri hisoblanadi, chunki ular tendentsiyaning barqarorligini baholashga imkon beradi. Bunday holda, yalpi foyda marjasining o‘zgaruvchanligi past deb baholanadi va bu ko‘rsatkichning tendentsiyasi barqaror hisoblanadi. Sof foyda marjasi ko‘rsatkichi uchun 14,98%li o‘zgaruvchanlik koeffitsienti yakuniy moliyaviy natijalarning nobarqarorligini ko‘rsatadi. O‘zgaruvchanlikni hisobga olgan holda jamiyatning kapitaldan foydalanish bilan bog‘liq risklari bo‘yicha prognozlash natijalarini 3-jadvalda quyidagicha keltirib o‘tamiz.

3-javdal
“Qo‘qon mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy risklar miqdori o‘zgarishining prognoz parametrlari

№	Yillar	Yalpi foyda rentabelligi, %	Sof foyda rentabelligi, %
1.	2026	19,45	-0,98
2.	2027	21,91	0,45
3.	2028	20,02	2,6
4.	2029	17,84	1,4

*Muallif tomonidan tuzilgan

3-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, agar jamiyat tomonidan 2020-2023 yillarda kuzatilgan tendentsiya davom etsa, 2026-2029 yillarda “Qo‘qon mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyatining yalpi va sof rentabelligining pasayishi prognoz qilinmoqda. Ikkinchi ssenariyda esa, jamiyatning 2013-2019 yillardagi o‘shish suratlari saqlanib qoladigan bo‘lsa, aksiyadorlik jamiyatining yalpi va sof rentabelligining o‘shishi prognoz qilinmoqda. Birinchi holatdagi ssenariyda, yalpi foyda marjasining pasayishi kompaniyaning umumiy moliyaviy salohiyati va barqarorligini pasayishi sifatida qabul qilinadi. Shuningdek, jadval ma‘lumotlaridagi sof foyda marjasini prognoz natijalari tahlil qilinayotgan davrda moliyaviy zararlar oshib borishi boshqacha aytqanda, moliyaviy risklar yuqori ekanligini ko‘rsatadi. O‘z navbatida aytib o‘tish joyizki, 2013-2019 va 2020-2024 yillardagi ma‘lumotlarni hisobga olish va qisqa muddatli tendentsiyalarni aks ettirish uchun adaptiv modellar yordamida moliyaviy risklarning darajasi prognoz qilindi. Modellarning parametrlari approksimatsiya hatoligi mezoniga muvofiq tanlangan (4-jadval). Prognoz natijalari “Qo‘qon mexanika zavodi” AJda 2026-yilda rentabellik ko‘rsatkichlarining yaxshilanish tendentsiyasi saqlanib qolishini ko‘rsatmoqda. Xususan, ROE va ROA ko‘rsatkichlarining o‘shishi korxonada aktivlari va xususiy kapitalidan foydalanish samaradorligi ortayotganligini bildiradi.





4-jadval

“Qo‘qon mexanika zavodi” AJning rentabellik ko‘rsatkichlariga doir adaptiv modellarining statistik ma‘lumotlari qiymatlar

№	Ko‘rsatkichlar	Ekspontsial o‘rtachalarning boshlang‘ich qiymatlari		Adaptatsiya parametrlarining qiymati		$ \bar{\delta} , \%$
		S_0	T_0	α	γ	
1.	y_1	16,57	0,412	0,8	0,8	4,3
2.	y_2	2,21	-0,087	0,8	0,5	8,1
3.	y_3	5,84	-	0,8	-	5,4
4.	y_4	8,37	-	0,8	-	9,4
5.	y_5	6,19	-	0,8	-	7,1

*Muallif tomonidan tuzilgan

Moliyaviy leverage hamda qarz nisbati ko‘rsatkichlari deyarli o‘zgarmasdan qolayotganligi korxonaga kapital tuzilmasining nisbatan barqaror ekanligini anglatadi. Shu bilan birga, to‘lov qobiliyati va absolyut likvidlik koeffitsientlarida biroz pasayish kuzatilishi mumkinligi qisqa muddatli majburiyatlarni boshqarishni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. CAPEX koeffitsientining 0,62 darajasida prognoz qilinishi asosiy vositalarni yangilash jarayonlari davom etishini, biroq investitsion faollikning keskin oshishi kutilmayotganligini anglatadi.

Xulosa

Innovatsion faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy risklar korporativ tuzilmalarning investitsion faolligi, moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Innovatsion loyihalar yuqori darajadagi noaniqlik, texnologik tavakkalchilik va bozor kon‘yunkturasining o‘zgaruvchanligi bilan tavsiflanishi sababli ularni moliyalashtirishda an‘anaviy risk baholash usullaridan foydalanish yetarli natija bermaydi. Shuning uchun innovatsion faoliyat samaradorligini ta‘minlash uchun moliyaviy risklarni boshqarish tizimini kompaniyaning umumiy strategik rivojlanish konsepsiyasi bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa innovatsion loyihalarning moliyaviy barqarorligini oshirish va investitsiya resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Xalqaro amaliyot tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy risklarni boshqarishda Ssenariy tahlil (Scenario Analysis), Monte-Carlo simulyatsiyasi, Sezuvchanlik tahlili, Value at Risk usuli (VaR) va stress-test kabi usullar keng qo‘llaniladi. Mazkur yondashuvlar ehtimoliy moliyaviy yo‘qotishlarni oldindan aniqlash, turli iqtisodiy ssenariylarni baholash hamda investitsion qarorlar sifatini oshirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari ushbu usullarni O‘zbekistondagi korporativ tuzilmalar amaliyotiga joriy etish innovatsion loyihalar bilan bog‘liq risklarni prognoz qilish sifatini oshirish va investitsion faoliyat samaradorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi.

“Qo‘qon mexanika zavodi” AJ misolida amalga oshirilgan ekonometrik tahlillar korxonaning rentabellik ko‘rsatkichlari bo‘yicha turli tendensiyalar mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, sof foyda rentabelligi ko‘rsatkichining yuqori o‘zgaruvchanligi innovatsion faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy risklarning saqlanib qolayotganligini anglatadi. Prognoz natijalariga ko‘ra, innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish va moliyaviy risklarni kamaytirish uchun korxonada investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash zarur. Bu esa kelgusida korxonaning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini beradi.

Innovatsion faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy risklarni boshqarishda raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, Big Data va avtomatlashtirilgan analitik platformalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari raqamli risk-monitoring tizimlari moliyaviy tavakkalchiliklarni erta aniqlash, investitsion loyihalarning samaradorligini baholash va boshqaruv





qarorlarini tezkor qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishini ko‘rsatdi. Shu sababli innovatsion faoliyatni amalga oshirayotgan korxonalarda raqamli risk-menejment infratuzilmasini shakllantirish, ma’lumotlar bazalarini integratsiyalash va prognozlashning intellektual modellarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xalqaro tajribada innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda venchur kapital, kraudfanding, xususiy investitsiya fondlari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanish moliyaviy risklarni kamaytirishning muhim vositasi sifatida e’tirof etiladi. O‘zbekiston amaliyotida ham innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, venchur fondlar faoliyatini kengaytirish hamda innovatsion investitsiyalar uchun qo‘shimcha rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish zarur. Bu innovatsion loyihalarning investitsion jozibadorligini oshirish, kapital resurslarini keng jalb qilish va innovatsion iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Innovatsion faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishda ESG tamoyillarini joriy etish, riskka moslashtirilgan investitsion baholash usullaridan foydalanish hamda strategik moliyaviy rejalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari innovatsion loyihalarda moliyaviy risklarni baholashning kompleks yondashuvi korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va uzoq muddatli investitsion samaradorlikka erishish imkonini berishini ko‘rsatdi. Shu sababli innovatsion faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy risklarni boshqarishning institutsional va metodologik asoslarini yanada takomillashtirish zarur deb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-630-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. – <https://lex.uz/ru/docs/5841063>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “Startup loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-357-son qarori.
4. Metrick A., Yasuda A. Venture Capital and the Finance of Innovation. Risk Management and Innovation Investment Strategies // Journal of Corporate Finance. - 2021. - Vol. 68
5. Kerr W.R., Nanda R., Rhodes-Kropf M. Entrepreneurship as Experimentation // Journal of Economic Perspectives. - 2022. - Vol. 36, No. 3. - Pp. 67-92.
6. Damodaran A. Valuing Young, Start-up and Growth Companies: Estimation Issues and Risk Management Approaches // Journal of Applied Corporate Finance. – 2023. – Vol. 35, No. 2. – Pp. 18-34.
7. Block J.H., Colombo M.G., Cumming D., Vismara S. New Players in Entrepreneurial Finance and the Future of Crowdfunding and Venture Capital // Small Business Economics. – 2024. – Vol. 62, No. 1. – Pp. 25-48.
8. Календжян С.В. Управление инновациями и предпринимательством в условиях цифровой экономики // Российская академия народного хозяйства и государственной службы. - 2023.
9. Федорова Е.А. Управление финансовыми рисками инновационных проектов в условиях цифровой трансформации экономики // Экономика и управление: научно-практический журнал. - 2024.
10. Абрамов А.Г. Финансовые рынки и инновационное развитие экономики: современные тенденции и риски // Научные исследования НИУ ВШЭ. – 2022-2024.

